
Bank foydasiga kredit qarzdorligi undirib berildi

Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining 18.03.2022 yildagi qaroriga asosan qarzdor "Ahmad Aziz Zamin" fermer xo'jaligidan undiruvchi ATB "Savdogarbank" Farg'ona viloyat filiali foydasiga 355.454.192 so'm kredit qarzini undirish haqidagi ijro hujjati byuroning Farg'ona shahar bo'limi ish yurituviga kelib tushgan va ijro ish yurituvi qo'zg'atilgan.

Mazkur ijro hujjati yuzasidan olib borilgan majburiy ijro harakatlari davomida qarzdorlik to'liq undirilib, ijro hujjati amalda tamomlandi.

Majburiy ijro byurosi Farg'ona shahar bo'limi

2022-09-12 17:30:00